“TASDIQLAYMAN”

“UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS” MChJ
Bosh direktorning texnika va AT bo‘yicha o‘rinbosari

_____ A.R. Abduraxmanov

2026-y. “____” _____

Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi (MQIM) uskunalarini joylashtirish maqsadida, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 41-uy manzilida joylashgan “UMS” MChJ Samarqand shahridagi XKM Markaziy ofisi ikki qavatli binosining 1- va 2-qavatlaridagi xonalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish xizmatini xarid qilish bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent – 2026

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar 3
1.1 Bajarilayotgan ishlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar) nomi 3
1.2 Ishlar (xizmatlar)ni sotib olish maqsadi 3
1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos 3
1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati 3
1.5 Ishlar dasturi 4
2. Ijrochiga qo'yiladigan umumiy talablar 4
3. Hujjatlar bo'yicha talab 5
4. Ishlarni bajarish va texnik hisobot materiallarini berish muddatlari 5
5. Kafolat hajmi va/yoki taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar 5
6. Ilovalar ro'yxati 5
7. Xizmat ko'rsatishda mas'uliyatni taqsimlash matritsasi 6

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Bajarilayotgan ishlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar) nomi

Ushbu texnik topshiriq doirasida binoni texnik ko'rikdan o'tkazish ishlarini bajarish talab etiladi:

- kommutator xonasi uchun xona tashkil etish maqsadida binoni texnik ko'rikdan o'tkazish.
- Binoning texnik tekshiruvini bajarish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: binoning qurilish konstruksiyalarini texnik tekshirish va instrumental tekshirish bo'yicha xulosa, sxemalar va chizmalar.

1.2 Ishlar (xizmatlar)ni sotib olish maqsadi

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (keyingi o'rinlarda MQIM) faoliyati uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Samarqand shahridagi "UMS" MChJ ikki qavatli ma'muriy binosining birinchi qavatida texnologik uskunalarni joylashtirish uchun xonalarni qayta rejalashtirish.

1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. "Universal Mobile Systems" MChJning 2025-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish konsepsiyasi.

1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati

Quyidagi tarkibda o'lchash-tekshirish ishlari va laboratoriya tadqiqotlarining to'liq majmuasini o'z ichiga olgan Texnik tekshiruvni o'tkazish:

a) Binoning tutib turuvchi konstruksiyalarining joriy holatini aniqlash.

b) Umumiy maydon geologiyasi (arxiv materiallari bo'yicha). Poydevorlarni ochish va poydevor asoslarining geologik sharoitlari.

c) Barcha devorlarning texnik va foydalanish holatini tekshirish.

d) Binoning boshqa barcha konstruksiyalarini tekshirish, ularning joriy foydalanish holatini aniqlash.

e) Qurilish konstruksiyalarini nuqsonlarni fotofiksatsiya qilgan holda ko'zdan kechirish.

f) Asboblar yordamida instrumental tekshirish

g) buzmasdan nazorat qilish va konstruktiv elementlar, uzellarni ochish.

h) O'lchov chizmalarini ishlab chiqish.

i) Konstruktiv elementlarning texnik holatini (nuqsonlar, shikastlanishlar va deformatsiyalar) hisobga olgan holda tutib turuvchi konstruksiyalarni tekshirish hisobi.

j) Tekshiruv natijalariga asosan, nuqson va shikastlanishlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablarini aniqlagan holda, bino konstruksiyalarining texnik holatini baholash.

k) Binoning tutib turuvchi konstruksiyalarining zilzilabardosh qurilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini baholash.

l) Ushbu Texnik topshiriqning **1.2**-bo'limida ko'rsatilgan ishlarni bajarish imkoniyatiga ko'ra binoni baholash.

m) Binoning qavatlararo yopmalari va tomining tutib turuvchi qobiliyatini kuchaytirish, shuningdek bino ustunlarini mustahkamlash bo'yicha texnik loyihani ishlab chiqqan holda (rus tilida) Texnik hisobot tuzish.

Texnik tekshiruv natijalarini Konstruksiyalarni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlarni ko'rsatgan holda (zarur hollarda) Buyurtmachiga hisobot shaklida taqdim etish lozim.

1.5 Ishlar dasturi

Ishlar dasturini tuzish va Buyurtmachi bilan kelishish.

Ishlar dasturida quyidagilar ko'rsatilsin:

- Tekshiriladigan qurilish konstruksiyalari va ularning elementlari ro'yxati.
- Asboblar yordamida o'lchash va sinash joylari hamda usullari.
- Laboratoriya sharoitida namunalarni tekshirish uchun materiallarni ochish va namuna olish joylari.
- Zarur tekshiruv hisob-kitobini o'tkazish.

2. Ijrochiga qo'yiladigan umumiy talablar

2.1 Umumiy talablar:

- Ijrochi Shartnomani tuzish va bajarish uchun to'liq hajmda fuqarolik huquqdorlikka ega bo'lishi, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi;
- Loyihalashtirish uchun litsenziyaga ega bo'lishi;
- Xarid predmeti bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha zarur hujjatlarga ega bo'lish;
- Tugatish jarayonida bo'lmasligi (yuridik shaxs uchun) va sud qarori bilan nochor (bankrot) deb topilmagan bo'lishi;
- Sud, ma'muriy organ qarori bilan faoliyati to'xtatilgan va (yoki) Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mol-mulki xatlangan shaxs bo'lmasligi;
- undirilishi ushbu Texnik topshiriq doirasida Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishning imkonsizligiga olib kelishi mumkin bo'lgan o'tgan kalendar yili uchun har qanday darajadagi byudjetlar yoki davlat byudjetdan tashqari jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi bo'lmasligi;
- Ij rochi amalga oshiriladigan ishlar (xizmatlar) ro'yxati bo'yicha hajmni va jalb etiladigan mutaxassislarni (ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatini shakllantirish asosini) aniqlashtirgan holda ma'lumot taqdim etishi kerak.

2.2 Ijrochiga qo'yiladigan majburiy talablar:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq zarur hujjatlarning (litsenziyalar, guvohnomalar, sertifikatlar va boshqalar) mavjudligi.

- Texnik tekshiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha tajribaga ega bo'lish.
- Texnik tekshiruv ishlarini bajarish uchun shtatda mutaxassislarning mavjudligi.
- Mutaxassislarning texnik tekshiruv ishlarini o'tkazish uchun tegishli ruxsatnomalarga ega bo'lishi.
- Quyidagilar bilan cheklanmagan holda instrumental tekshiruv o'tkazish uchun buzilmaydigan nazorat asboblari arsenalining mavjudligi:

• Lazerli ruletka, shtangensirkul, mikroskop - chiziqli o'lchamlarni o'lchash;
• Qurilish materiallarining mustahkamligini o'lchagich - defektoskop;
• Beton va materiallarni nazorat qilish asbobi - zarba-impuls ta'siri va ultratovush nurlanishiga sinash;
• G'ishtning ilashish mustahkamligini o'lchagich - o'q bo'ylab cho'zilishga nisbatan normal uzilish usuli;
• Betonning himoya qatlamini o'lchagich - betonning himoya qatlami qalinligini va temir-beton buyumlar hamda konstruksiyalarda armaturaning joylashishini magnit usuli bilan nazorat qilish.

- Texnik tekshiruv uchun ochilgan joylardagi barcha ishlarni Ijrochi o'z kuchi bilan bajarishi shart.

2.3 Qo'shimcha talablar.

- Yopiq texnik yoki tijorat ma'lumotlariga kirish imkoniyati mavjudligi sababli, ishlarni bajarishning har qanday bosqichida maxfiylikka rioya qilish majburiyati.
- Tekshiruv obyekti va u bo'yicha olingan natijalarga taalluqli barcha ma'lumotlarga bo'lgan mualliflik huquqlari intellektual mulk sifatida tegishli huquqiy muhofaza bilan "UMS" MChJga tegishli bo'ladi.
- Obyekt tegishli ruxsat cheklovlariga ega bo'lgan rejimli hisoblanadi.

2.4. Texnik tekshiruvni bajarishga, uning tarkibi va hujjatlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

2.4.1 Texnik ko'rikni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qurilish me'yorlari talablariga qat'iy muvofiq ravishda o'tkazish, jumladan:

- DAST 31937-2011, SHNQ 2.01.15-05;
- QMQ 1.03.03-97, QMQ 1.04.03-98;
- QMQ 2.01.16-97, QMQ 2.01.02-04;
- Turar joy, jamoat va sanoat binolarini pasportlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;
- Mavjud bino va inshootlarning konstruktiv tekshiruvi va texnik holatini prognozlash bo'yicha tavsiyalar.

2.4.2 Tekshirish ishlarining dastlabki tarkibi va hajmlari **1.4**-bo'limda keltirilgan. Ishlarning yakuniy hajmlari 2.4.1-bandga muvofiq qabul qilinishi va Shartnomada qayd etilishi lozim.

2.4.3 Barcha o'lchashlar natijalari bo'yicha sxema va chizmalar tuziladi. Keyinchalik tekshirish natijalari bo'yicha bino konstruksiyalarining texnik holati to'g'risida xulosa tuziladi. Tekshiruv hisob-kitoblari natijalariga ko'ra, undan keyingi foydalanish xavfsizligi to'g'risida xulosalar chiqariladi. To'plangan barcha materiallar asosida texnik hisobot rasmiylashtiriladi.

2.4.4 Barcha tekshiruv hisob-kitoblarini QMQ 2.01.03-96 va QMQ 2.01.07-96 talablariga muvofiq bajarish lozim.

3. Hujjatlar bo'yicha talab

Texnik ko'rik materiallarini rasmiylashtirish va beriladigan nusxalar soni:

Uch nusxasi – qog'oz shaklida.

Bir nusxasi - elektron manbada quyidagi ko'rinish va formatlarda:

- tahrirlanadigan formatdagi matnli hujjatlar (Texnik hisobot) - *.doc (Word 2010), *.pdf;
- tahrirlanadigan formatdagi grafik hujjatlar (chizmalar va sxemalar) - *.dwg (AutoCAD 2007).

4. Ishlarni bajarish va texnik hisobot materiallarini berish muddatlari

Texnik tekshiruv ishlarini bajarish va Texnik hisobot materiallarini berish muddatlari avans to'langan paytdan boshlab (kirish va chiqishni hisobga olgan holda) 30 kalendar kundan oshmasligi kerak.

Ijrochi bajarilgan ishlarning har bir turi bo'yicha alohida ish turlarini ko'rsatgan holda bajarilgan ishlar dalolatnomalarini taqdim etishi shart.

5. Kafolat hajmi va/yoki taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Ijrochi bajarilgan ishning sifati loyihalash me'yorlari va SHNQ, QMQ talablariga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, texnik topshiriqqa hamda Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lishini kafolatlashi shart.

Hisobotda kamchiliklar aniqlanganda, ijrochi 5 ish kuni ichida kamchiliklarni bepul bartaraf etishi shart.

Bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangan sanadan boshlab 1 (bir) yil kafolat beriladi.

6. Ilovalar ro'yxati

t/r	Ilova nomi
1	Binoning 1-qavatida mo'ljallanayotgan uskunalar va kommunikatsiyalarni joylashtirish sxemasi.

Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

t/r	qisqartma	qisqartma rasshifrovkasi
1	**Buyurtmachi**	"UMS" MChJ
2	**Ijrochi**	Texnik topshiriqqa muvofiq xizmat ko'rsatish ishlarini bajaruvchi, amalda amalga oshiruvchi shaxs
3	**MQIM**	Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi

7. Xizmat ko'rsatishda mas'uliyatni taqsimlash matritsasi

Texnik xizmat ko'rsatish	Ijrochi	Buyurtmachi
Texnik topshiriqni tasdiqlash	A	R
Ijrochini tanlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar		R
Buyurtmachi maydonini tekshirish	R	C
Ijro hujjatlari to'plamini tayyorlash	R	I

Ishlab chiqilgan:

KTvaXKPLG guruhi mutaxassisi A.A. Lim

Kelishilgan:

KTvaXKPRB bo'limi boshlig'i M.S. Karabayev

Tarmoqni rivojlantirish departamenti direktori V.Yu. Say

Loyihalarni boshqarish departamenti direktori N.Sh. Saliyev

Фрагмент – 1 этажа



Масштаб 1:100